



SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

Sa'dullayeva Gulnoza Usmanovna

Student of Tashkent institute of finance

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7533356>

ARTICLE INFO

Received: 02nd January 2023

Accepted: 11th January 2023

Online: 13th January 2023

KEY WORDS

Sanoat, korxonalar, innovatsiya, qo'shimcha qiymat, diversifikatsiya, omil, moliyaviy-iqtisodiy resurslar.

ABSTRACT

Globalashuv sharoitida har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining jadal o'sishi, avvalambor, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish, xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar va moliyaviy xizmatlarni yaxshilash kabi omillar natijasida yuzaga keladi. Ushbu maqolada sanoat korxonalarini faoliyatiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion omillarning xususiyatlari tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharxi

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatga ta'sir o'tkazuvchi omillarning tasnifi ayni vaqtda ishlab chiqilmagan. Ko'plab mualliflar korxonaning innovatsion faoliyatiga ta'sir o'tkazuvchi omillarga o'z e'tiborini qaratishgan. T.G. Filosofova o'z asarida, sanoat korxonalarida innovatsiyalarga to'sqinlik etuvchi quyidagi omillarni qayd etib o'tgan: -iqtisodiy - moliyaviy resurslar bilan kam ta'minlanganlik, davlat tomonidan kam moliyalashtirilish, innovatsiyalarni targ'ib qilishga yuqori sarf-harajatlar, iqtisodiy xavfning yuqori darajasi, innovatsiyalar qaytimlarining uzoq muddati; -ishlab chiqarish - malakali kadrlar yetishmasligi, yangi texnologiyalar, sotish bozorlari to'g'risida zarur ma'lumotlarning yo'qligi, tashkilotning innovatsiyalarni tezda qabul qila olmasligi, boshqa tashkilotlar, korxonalar va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi yoki yo'qligi; - boshqa omillar - innovatsion mahsulotga iste'molchilar tomonidan past narxdagi talab, innovatsion faoliyatda yetarlicha qonuniy va meyoriy-huquqiy asoslarning, tartibga solishning yo'qligi, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni yetarlicha rag'batlantirilmasligi, sust rivojlangan innovatsion infratuzilma, texnologiya bozorida rivojlanishning yo'qligi. A.A. Bovin esa tashkilotning innovatsion muhitiga quyidagi ta'sir o'tkazuvchi omillarni keltirib o'tadi va tahlil qiladi: -ijtimoiy infratuzilma (ishchilarning ta'lim, tibbiy va madaniy inshootlardagi xizmatlardan foydalanish imkoniyati); -aloqa sohasi (aloqa, axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi); -tabiiy - geografik sharoitlar (transport, moddiy-texnik, energiya, yoqilg'i va xomashyo resurslarining mavjudligi); -texnologik va ilmiy-texnik soha (ishlanmalar bozorining mavjudligi, ilmiytadqiqot institutlari va boshqalarning mavjudligi); -iqtisodiy va moliyaviy soha (innovatsion faoliyatni davlat tomonidan milliy va mintaqaviy darajada qo'llab-quvvatlanishi, innovatsion ishlanmalardan manfaatdor investorlarning mavjudligi);



KIRISH Kishilik jamiyatining vujudga kelishi, ya'ni jamoa bo'lib yashash va ishlash insoniyat ongining takomillashib borishiga turtki bo'ldi. Insoniyat ongining rivojlanishi natijasida borliqni o'rganish borasida turli fikr va qarashlar paydo bo'la boshladi. Xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish fikri ham jamiyat rivojlanishining natijasidir. Korxonalarni to'g'ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatini chuqurroq o'rganishni talab qiladi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berdi. Yangicha ish yuritish, jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamkorlarni tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish dolzarb masala bo'lib maydonga chiqdi. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash korxonalar samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalanilmayotgan resurslarni aniqlab, ularning kelgusida yanada rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqarishga imkon beradi. Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari – foyda va rentabellik korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlariga aylanadi. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan bir sharoitda iqtisodiyot sektorlarining uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida iqtisodiyotni isloh qilishning g'oyat muhim yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy ustuvor usullar belgilab olindi. Mazkur masalalarni to'g'ri mushohada qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 29-dekabrida Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ushbu masalaga tanqidiy baho berib, shunday degan edilar: "Yangi O'zbekistonni yaratishda, oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa – bu izchil iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishning asosi hisoblanadi". [1. 3-b] Shu jihatdan qaraganda, korxonalarining barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil mukammal ishlashi kerak. Shu bilan birga moliyaviy holatni tahlil qilishning uslubiy yondashuvlarini va tahlil qilish samaradorligi muammosini o'z asarlarida ko'rib chiqishgan rus olimlari: I.I. Mazurova, M.V. Romanovskiy, N.A. Rusak, V.A. Rusak va o'zbek olimlaridan A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov va A.U. Burxonov va boshqalar.

Har qanday milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning hududlarini muvozanatli va barqaror rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Mintaqalar va ularning hududlarini barqaror rivojlanishida esa sanoat tarmoqlarining ahamiyati yuqoridir. Chunki sanoat tarmoqlari iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mahalliyashtirilishini rag'batlantirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini o'sishiga zamin yaratadi. Sanoat sohasida qazib olingan, ishlab chiqarishda yaratilgan barcha xomashyolarni qayta ishlash, ulardan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi. Dunyo tajribasida rivojlangan va yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan mamlakatlar amaliyoti ko'rsatishicha, ular muvaffaqiyatlari asosan sanoat tarmoqlarida,



xususan qayta ishlovchi sanoat korxonalaridagi tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Sanoatning boshqa tarmoqlardan farqli jihati - yuqori darajadagi qo'shimcha qiymat yaratishidir. Qo'shimcha qiymat – bu aniq turdagi mahsulotni yaratish, qayta ishlash, marketing faoliyatini olib borish va pirovard iste'molga chiqarilgunga qadar ishlab chiqarish jarayonining ketma-ketligidir.

Korxonalar innovatsion faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi yoki darajasi o'zgarishi ma'lum bir omillar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishni obyektiv va har tomonlama tadqiq etish davomida, unga ta'sir o'tkazuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish muammosi dolzarb va yetarlicha ishlab chiqilmagan bo'ladi. Innovatsion faoliyat omili deganda, korxonalar innovatsion o'sishining jadalligi va tavsifiga ta'sir o'tkazuvchi shartlar, sabab va ko'rsatkichlarni tushunamiz. Bunda innovatsion jarayon, ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida maydonga chiqadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatga ta'sir o'tkazuvchi omillarning tasnifi ayni vaqtda ishlab chiqilmagan. Ko'plab mualliflar korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'sir o'tkazuvchi omillarga o'z e'tiborini qaratishgan. T.G. Filosofova o'z asarida, sanoat korxonalarida innovatsiyalarga to'sqinlik etuvchi quyidagi omillarni qayd etib o'tgan: - iqtisodiy - moliyaviy resurslar bilan kam ta'minlanganlik, davlat tomonidan kam moliyalashtirilish, innovatsiyalarni targ'ib qilishga yuqori sarf-harajatlar, iqtisodiy xavfning yuqori darajasi, innovatsiyalar qaytimlarining uzoq muddati; - ishlab chiqarish - malakali kadrlar yetishmasligi, yangi texnologiyalar, sotish bozorlari to'g'risida zarur ma'lumotlarning yo'qligi, tashkilotning innovatsiyalarni tezda qabul qila olmasligi, boshqa tashkilotlar, korxonalar va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi yoki yo'qligi; - boshqa omillar - innovatsion mahsulotga iste'molchilar tomonidan past narxdagi talab, innovatsion faoliyatda yetarlicha qonuniy va meyoriy-huquqiy asoslarning, tartibga solishning yo'qligi, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni yetarlicha rag'batlantirilmaganligi, sust rivojlangan innovatsion infratuzilma, texnologiya bozorida rivojlanishning yo'qligi. A.A. Bovin esa tashkilotning innovatsion muhitiga quyidagi ta'sir o'tkazuvchi omillarni keltirib o'tadi va tahlil qiladi:

- ijtimoiy infratuzilma (ishchilarning ta'lim, tibbiy va madaniy inshootlardagi xizmatlardan foydalanish imkoniyati);
- aloqa sohasi (aloqa, axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi);
- tabiiy - geografik sharoitlar (transport, moddiy-texnik, energiya, yoqilg'i va xomashyo resurslarining mavjudligi);
- texnologik va ilmiy-texnik soha (ishlanmalar bozorining mavjudligi, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalarning mavjudligi);
- iqtisodiy va moliyaviy soha (innovatsion faoliyatni davlat tomonidan milliy va mintaqaviy darajada qo'llab-quvvatlanishi, innovatsion ishlanmalardan manfaatdor investorlarning mavjudligi);
- siyosiy-huquqiy soha (innovatsion va ilmiy-texnik sohani huquqiy tartibga solishda milliy, mintaqaviy reja va dasturlarning mavjudligi);
- xo'jalik yuritishning strategik qamrovi (bozorning muayyan segmentida innovatsiyalarning paydo bo'lish tezligi);
- mehnat resurslari bozori.



Bizning fikrimizcha, keltirilgan tasniflar, korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning faqatgina kichik bir qismini qamrab olgan. Shuni ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotlarda innovatsion faoliyatga bevosita ta'sir o'tkazuvchi omillar aniqlangan emas. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tasniflash asosida sanoat korxonalari faoliyatini mintaqa iqtisodiyoti samaradorligiga ta'sirini aniqlash. Fikrimizcha, korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bir qator belgilariga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida boshqaruvchanlik darajasiga ko'ra korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'sir o'tkazuvchi omillarning quyidagi tasnifiy belgilari taklif qilin mumkin. Kelib chiqish manbalariga ko'ra, omillar tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy, moliyaviy-iqtisodiy, sanoat-texnologik, ilmiy-texnik va tashkiliy-boshqaruv guruhlariga bo'linadi. Tabiiy-iqlimiy omillar sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini natijalariga katta ta'sir o'tkazadi. Mintaqada joylashgan sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini rivojlanishi va innovatsion faoliyatning o'sishiga suv ta'minoti, qulay iqlim, ish sharoitlar va yirik yoqilg'i va xom-ashyo manbalarining mavjudligi katta hissa qo'shadi. Tabiiy-iqlimiy sharoitning murakkabligi, ishchi kuchining yetishmasligi, ishlab chiqarish kuchlari, transport rivojlanish darajasining pastligi, aksincha korxonalar innovatsion faoliyatini rivojlanishiga to'sqinlik qilishi bilan birgalikda, korxonalar innovatsion faoliyat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yuqorida keltirilgan muammolar yechimi uchun juda katta mablag' talab qiladi. Ijtimoiy omillarga demografik vaziyat, ijtimoiy keskinlik darajasi, ishchilarning yashash sharoiti, korxonada sog'lomlashtirish, sport va madaniy xordik ishlarini tashkillashtirish, kadrlarning madaniy, ta'limdagi umumiy darajasi va boshqalarni kiritish mumkin. Bular korxonalar ishlab chiqarish resurslarining samarali va to'laroq ko'llanishiga, inson kapitalining korporativ rivojlanishi va shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyaviy-iqtisodiy omillar mablag', xom-ashyo, materiallar bilan ta'minlanganlikni, qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari darajasini aniqlaydi. Innovatsion faoliyatning moliyaviy-iqtisodiy omillarini tadqiq qilish, eng avvalo, korxonaning innovatsion rivojida moliyaviy imkoniyatlarini tadqiq qilish imkoniyatini, korxonaning hozirgi va kelajakdagi moliyaviy holatida innovatsion strategiya rivojlanishining yo'nalishini oldindan ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

| Ko'rsatkichlar | Ближняя Каракалпакская | Андижанская | Бухарская | Кашкардэвская | Навоийская | Самаркандская | Ташкентская | Ферганская | Хорезмская | г. Ташкент |
|--|------------------------|-------------|-----------|---------------|------------|---------------|-------------|------------|------------|------------|
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 3,8 | 9,3 | 5,2 | 3,2 | 15,9 | 5,7 | 19,4 | 6,9 | 3,5 | 18,7 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 4,4 | 5,3 | 7,1 | 5,6 | 3,8 | 12,5 | 15,8 | 8,6 | 6,6 | 17,3 |
| Ichimliklar ishlab chiqarish | 1,7 | 0,2 | 1,7 | 1,1 | 0,1 | 2,2 | 36,8 | 0,7 | 2,9 | 45,9 |
| Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 85,9 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 14,1 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 3,7 | 9,9 | 8,3 | 8,0 | 2,7 | 8,4 | 8,5 | 15,3 | 5,9 | 9,4 |
| Kryim ishlab chiqarish | 1,0 | 27,4 | 5,2 | 3,2 | 6,8 | 4,8 | 13,9 | 8,4 | 0,7 | 9,8 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 0,1 | 27,4 | 1,4 | 2,0 | 2,1 | 13,2 | 3,0 | 19,8 | 0,4 | 7,0 |
| Yog' och va po'kak buyumlar (mebel dan tashqari) | 2,1 | 1,2 | 1,6 | 1,2 | 1,6 | 1,9 | 14,1 | 20,4 | 1,7 | 35,2 |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,4 | 1,1 | 0,8 | 0,5 | 0,7 | 3,9 | 26,0 | 8,2 | 5,0 | 48,3 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 0,3 | 0,3 | 0,2 | 0,5 | 0,7 | 1,3 | 9,2 | 0,6 | 0,1 | 85,0 |
| Ko'k va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,1 | 0,1 | 73,3 | 0,0 | 0,0 | 0,5 | 0,6 | 19,8 | 0,0 | 1,5 |
| Kimyoviy mahsulotlari ishlab chiqarish | 31,2 | 1,1 | 1,2 | 13,2 | 16,0 | 0,9 | 14,2 | 10,1 | 0,2 | 10,5 |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari | 1,0 | 2,5 | 0,4 | 0,1 | 0,1 | 2,4 | 3,2 | 1,3 | 0,5 | 77,8 |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 0,9 | 3,0 | 2,5 | 0,8 | 0,7 | 5,9 | 23,1 | 8,8 | 1,4 | 41,2 |
| Boshqa nonmetall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 2,4 | 2,5 | 5,9 | 2,0 | 10,7 | 5,7 | 16,6 | 14,4 | 2,0 | 21,1 |
| Metallurgiya sanoati | 0,0 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 46,4 | 2,0 | 39,9 | 0,2 | 0,0 | 10,6 |
| Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor mahsulotlar | 0,5 | 2,8 | 2,6 | 0,8 | 26,6 | 3,9 | 9,1 | 6,8 | 1,7 | 35,7 |
| Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar | 1,6 | 0,0 | 0,0 | 0,1 | 2,6 | 0,1 | 13,8 | 1,2 | 0,0 | 80,4 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 0,7 | 4,9 | 0,1 | 0,0 | 1,6 | 3,3 | 11,6 | 1,6 | 0,3 | 69,4 |
| Boshqa to'rtalarga kiritilmagan mashina va uskunalar | 0,0 | 9,6 | 0,6 | 0,5 | 5,6 | 1,0 | 10,9 | 3,1 | 6,3 | 53,0 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim avtomobillar | 0,0 | 61,3 | 0,0 | 0,0 | 1,1 | 9,3 | 6,3 | 1,1 | 15,7 | 1,6 |
| Boshqa transport vositalari ishlab chiqarish | 0,0 | 18,0 | 4,8 | 0,0 | 0,0 | 5,3 | 4,3 | 10,3 | 0,0 | 56,4 |
| Mebel ishlab chiqarish | 3,6 | 7,6 | 6,2 | 3,5 | 1,5 | 7,8 | 9,8 | 10,2 | 1,7 | 29,5 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 3,3 | 6,4 | 0,8 | 0,4 | 1,3 | 1,9 | 5,1 | 17,4 | 4,5 | 38,3 |
| Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish | 0,6 | 0,7 | 3,9 | 1,1 | 2,0 | 0,9 | 8,3 | 0,8 | 0,8 | 72,3 |




1-rasm Respublika ishlab chikarish sanoati tarkibida hududlarning ulushi¹ %

Sanoat-texnologik omillar korxonalar ishlab chiqarish resurslari va texnologiyalarining samarali va to'liq foydalanishini aniqlab beradi. Ilmiy-texnik omillarga ITTKI o'tkazilishi, intellektual mulkning mavjudligini qamrab oladi. Tashkiliy-boshqaruv omillar tahlili innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasini, samarali innovatsion menejmentni, innovatsiyalarni amalga oshirishda marketing strategiyasini, innovatsiyalarni moliyalashtirishni tashkillashtirishni, innovatsion faoliyat vazifalariga tashkiliy tuzilmaning mos kelishini aniqlashga yordam beradi.

Bizning fikrimizga ko'ra, innovatsion faoliyatga ta'sir o'tkazuvchi omillarni boshqaruv darajasiga ko'ra ham tasniflash lozim. Boshqaruv darajasiga ko'ra korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashda korxonani bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazuvchi omillarini, shu bilan birgalikda o'zining innovatsion faoliyati darajasini va korxonalar ta'sir o'tkaza olmaydigan omillarni o'zgartirishini ta'kidlash mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv darajasiga ko'ra innovatsion faoliyat omillari tasniflanishi korxonalar innovatsion faoliyati darajasini kengaytirish va baholash maslalarini ko'rib chiqishda eng muhim hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga ta'sir o'tkazuvchi omillar boshqaruv darajasiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm): Boshqarilmaydigan omillar (yoki berilgan) - bular, korxonalar innovatsion faoliyatiga, boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga ta'sir o'tkazmaydigan omillar. Bilvosita boshqariladigan omillar - bular, korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'siri natijalari boshqaruv qarorlarining qanday qabul qilinishi, tashqi omillar ta'siri bilan bog'liq. Korxonalar innovatsion faoliyati rivojlanishiga bilvosita boshqariladigan omillarning ta'siri innovatsion loyihalarga ta'sir o'tkazuvchi moliya institutlarining qabul qiladigan boshqaruv qarorlarini, innovatsiyalar sohasida davlat siyosatining innovatsiyalarni targ'ib etishda manfaatdorlar sanoat tizimlari bilan bog'liq (bank sohasi, davlat investorlar va boshqalar).

¹ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>



2 – rasm. Innovatsion faoliyat omillarini tasniflash ¹

Bevosita boshqariladigan omillar sirasiga, korxonada innovatsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatish natijalariga boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi bilan butunlay bog'liq bo'lgan omillarni keltiramiz. Korxonaning innovatsion faoliyatiga uning sohaga tegishliligi alohida ta'sir o'tkazadi. U aytarli darajada xususiy, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilishga sharoit yaratadi. Boshqa shu kabi sharoitlarda ham aynan qaysi sohaga tegishlilik omili investitsiyalarni o'ziga jalb qilish ko'lamini oshiradi.

Korxonada innovatsion faoliyatini shakllantirish va yuzaga keltirish jarayonlari boshqaruvi innovatsion menejment tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Korxonada moliyaviy resurslari ko'lamini ITTKIning o'tkazish uchun, asosiy fondlarni modernizatsiyalash, kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish, faollashtirish, korxonada innovatsion faoliyati darajasini oshirish uchun muayyan tadbirlarni o'tkazishga imkon berishi kerak. Bizning fikrimizcha, tadqiqotning natijalari korxonada innovatsion faoliyati darajasini aniqlash va amalga oshirishni amalga oshirishga imkon beruvchi va oqibatda sanoat korxonalarini innovatsion faoliyatini baholash usullarini takomillashtiruvchi kompleks ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga sharoit yaratib beradi. Shuningdek, har bir hududda sanoat korxonalarini innovatsion asosda rivojlantirish orqali qo'shimcha qiymat yaratish mintaqada iqtisodiyotini rivojlantirishning lokomotivi bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, korxonalaridagi bunday muammolarni hal qilish uchun va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: xarajatlarni kamaytirish (ularni optimallashtirishni maksimal darajada

² <https://fayllar.org/innovatsion-iqtisodiyotni-rivojlantirish-omillari.html>



oshirish). Bu tadbirlar foydaning pasayishini to'xtatishga yordam berishi kerak. Xarajatlarni samarali nazorat qilish tizimini yaratish xarajatlarni kamaytirishning juda samarali usuli hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati korxonalar faoliyati natijalari, uning salohiyati va raqobatbardoshligi bilan bog'liq jarayon sifatida isbotlangan. Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyatini boshqarish korxonaning butun boshqaruv tizimida yetakchi mavqega ega bo'lishi kerak, chunki bu uning qiymatining o'sishi uchun tegishli sharoitlar yaratadi. "Korxonalar boshqaruvi" atamasi boshqaruv sub'ektining mikro va makro samaradorligini doimiy ravishda oshirish uchun mavjud resurslarni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashning joriy rejalariga ta'siri sifatida qaralishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish faoliyatning turli sohalarini qamrab oladi. Korxonalar istiqbolini belgilashda o'zgarib borayotgan iqtisodiy ijtimoiy muhit talablariga moslashish kunsayin tadbirkorlik ilmining asosiy amaliy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Istiqboliy o'zgarishlarning imkon boricha yuqori aniqlikda seza bilish, raqobat kurashida samarali usulardan va shakllardan foydalanish borasidagi nazariy izlanishlar tez orada rivojlanayotgan korxonalarining amaliy tajribasiga aylanmoqda. Har bir xo'jalik sub'ekti o'ziga xos bo'lgan, antiqa innovatsion strategiyalarni tanlashi, raqobatda Yangiliklarni tadbiriq qilish bilan bo'lgan kutilmagan tadbirlarni amalga oshirishi natijasida biznes sohasida yangi rivojlanish yo'llari, uslublariga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Respublikamizning korxonalar va tashkilotlarining jahon bozorlarida o'z o'rnilarini topishlarida rivojlangan va yetakchi kompaniyalar tajribalarini o'rganishlari, ularning innovatsion boshqaruv faoliyatlarini va taktik tadbirlarini kuzatishlari zarur bo'ladi. Chunki xorijiy firmalar bilan iqtisodiy, ilmiy xamkorlik sohalarini belgilashda "manfaatlar yakdilligi"ni ta'minlashda xar bir tadbirkor va xo'jalik sub'ekti o'zining maqsadlari, uzoq va qisqa muddatli strategiyasini, innovatsion siyosatini aniq belgilab olishi lozim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. www.turkiston.uz.
2. Burxonov A.U. "Sanoat korxonalarini moliyaviy barqarorligini baholash usuli". <http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27>.
3. Vahobov AV., Ibroximov AT., Ishonqulov N.F. "Moliyaviy va boshqaruv tahlili". Darslik. T.; "Sharq", 2005.
4. Казанкина О.А. Экономическая библиотека - <http://economy-lib.com/ekonomicheskaya-effektivnost-ispolzovaniya-informatsionnyh-tehnologiy-v-finansovoydeyatelnosti-predpriyatiy#ixzz76jNQUFGE>
5. Уктамов , Х. 2020. Способы обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий. Общество и инновации. 1, 1/s (окт. 2020), 405–412. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol1-iss1/s-pp405-412>.
6. Mamatkulova, .N. 2021. Повышение экономической эффективности промышленных предприятий. Общество и инновации. 2, 1/S (фев. 2021), 1–6. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss1/S-pp1-6>
7. Vcherashniy R., Suxarev O. Innovatsii — instrument ekonomicheskogo, razvitiya // Investitsii v Rossii. 2006. № 10. S.28.



8. Voronin S.A. Nalogooblojenie kak instrument stimulirovaniya innovatsiy. // «Obshestvennie nauki v Uzbekistane», №1, 2009g., s.29-34.
9. Innovatsiya — dvijushaya sila kitayskogo obshestva v sovremennuyu epoxu. //Ekonomist. № 4. 2008 g. S. 6.